

## O‘ZBEKISTONDA ICHKI NAZORAT TIZIMI – AUDITORLIK TEKSHIRUVI JARAYONINING ASOSIY ELEMENTI

**Turumova Dildora Abdumannonovna**

Jizzax politexnika instituti “Iqtisodiyot va menejment” kafedrası o‘qituvchisi  
[dildoraturumova85@gmail.com](mailto:dildoraturumova85@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ichki audit tizimini tashkil etish hamda uning ichki nazorat tizimi bilan bog‘liq munosabatlari tahlili va ularning mohiyati yoritib o‘tilgan. SHuningdek, ichki audit va uning ichki nazorat tizimini takomillashtirish bo‘yicha mavjud yondashuvlarni tahlil etilgan va amaliy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar.** Ichki audit, ichki nazorat, konsalting xizmatlari, integratsiya, modellar, byudjet-smeta, xarajatlar.

## СИСТЕМА ВНУТРЕННЕГО КОНТРОЛЯ В УЗБЕКИСТАНЕ ЯВЛЯЕТСЯ ГЛАВНЫМ ЭЛЕМЕНТОМ АУДИТОРСКОГО ПРОЦЕССА

Турумова Дилдора Абдуманноновна  
[dildoraturumova85@gmail.com](mailto:dildoraturumova85@gmail.com)

Преподаватель кафедры «Экономика и менеджмент» Джизакского  
политехнического института

### АННОТАЦИЯ

В данной статье описывается организация системы внутреннего аудита и анализ ее взаимосвязей с системой внутреннего контроля и их сущность. Также были проанализированы существующие подходы к совершенствованию внутреннего аудита и его системы внутреннего контроля и даны практические рекомендации.

**Ключевые слова.** Внутренний аудит, внутренний контроль, консультационные услуги, интеграция, модели, бюджет-смета, затраты

## THE INTERNAL CONTROL SYSTEM IN UZBEKISTAN IS THE MAIN ELEMENT OF THE AUDIT PROCESS.

Turumova Dildora Abdumannonovna

dildoraturumova85@gmail.com

Teacher of the "Economics and Management" department of Jizzakh Polytechnic Institute

### ABSTRACT

This article describes the organization of the internal audit system and the analysis of its relations with the internal control system and their essence. Also, the existing approaches to improving the internal audit and its internal control system were analyzed and practical recommendations were given.

**Keywords.** Internal audit, internal control, consulting services, integration, models, budget-estimate, costs.

Xozirgi kunda jahonda ichki audit yoʻnalishi faol rivojlanmoqda. Koʻpgina mamlakatlarda ichki audit xoʻjalik faoliyatining turli sohalarida keng tarqalgan. Kompaniyalar konsalting xizmatlaridan foydalanish yoki bir xil vazifalarni bajarish uchun outsorsing asosida tashqi audit boʻyicha mutaxassislarni jalb qilish oʻrniga, asosiy vazifalari ichki audit oʻtkazish boʻlgan oʻzlarining tarkibiy boʻlinmalariga ega boʻlishni afzal koʻradi.

Ichki auditning bir qator afzalliklari Oʻzbekistan tadbirkorlari va davlat sektori xodimlarining eʼtiborini ushbu faoliyat turiga qaratish imkonini beradi. Bu sohaga qiziqish tobora ortib bormoqda. CHunki, ichki audit arzon va samarali resurs boʻlib, minimal risklar bilan korxonalar samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Maʼlumki, auditorlik faoliyatining xalqaro standartlarida auditorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi, hamda audit va unga qoʻshimcha xizmatlar koʻrsatish sifatini baholashga yagona talablar belgilangan boʻlib, ularni rivojlantirgan holda, auditorlik tashkilotlarining ichki standartlari ishlab chiqiladi.

Ichki nazorat tizimini oʻrganish va baholash, auditorlik tekshiruvini amalga oshirishda nihoyatda muhimdir. CHunki tekshirilayotgan xoʻjalik subʼektidagi bu tizim qanchalik samarali boʻlsa, auditor tekshiruv oʻtkazishdagi tavakkalchiliklari shunchalik kam boʻladi, shu sababli bu jarayon auditorlik standartlari bilan tartibga solinadi.

Oʻzbekistan kompaniyalari jahon bozori va iqtisodiy jarayonlarining bir meʼyoriga aylanib, yangi xalkaro aloqalarni oʻrnatmoqda. SHunga koʻra, global

jarayonlarga integratsiyalashuvga yo'naltirilgan kompaniyalar faoliyati ichki auditga katta e'tibor qaratiladigan muayyan talab va standartlarga mos kelishi kerak.

COSO modelida ichki nazorat va ichki audit farqlanadi. "Ichki nazorat - bu korxonaning siyosatini belgilovchi oliy organi, yuqori boshqaruv xodimlari va boshqa barcha xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, u korxonaning muhim maqsadlarga erishishini kerakli darajada va asosli ravishda ta'minlaydi.

Ichki nazorat va ichki audit bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan tushunchalardir, lekin ular mazmunan bir xil emas.

Auditorlik tashkilotining xo'jalik sub'ekti ichida tayyorlangan va ishlangan hamda auditor tomonidan moliyaviy hisobotning qanchalik to'g'riligini tekshirish uchun foydalaniladigan testlarga nisbatan ishonchlilik darajasi bunday hujjatlarni tayyorlash va qayta ishlash ustidan o'rnatilgan ichki nazorat vositalariga bog'liq. 500-son "Auditorlik dalillari nomli XASga muvofiq, "Ichki nazorat tizimi testlari auditorlik tashkiloti tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektning buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimlarining holatini baholash uchun auditorlik dalillarini olish maqsadida bajariladigan amallarini ifodalaydi.

Auditorlik dalillari olinishi kerak bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimining asosiy jihatlari quyidagilar hisoblanadi:

tuzilma (buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimi, xatolarning oldini olish, aniqlash va to'g'rilashga qaratilgan tuzilmaga ega ekanligi);

faoliyat ko'rsatish (buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimlari samarali ishlayotganligi).

Muhokama etilayotgan jarayon uchun asos qilib olingan asosiy ibora shundan iboratki, auditorlik tashkiloti auditorlik tekshiruvi jarayonida faqat moliyaviy hisobot haqida auditorlik xulosasini shakllantirish maqsadida zarur ishlar hajmini aniqlash uchun ichki nazorat holatini o'rganadi. Auditorlik tekshiruvi jarayonida ichki nazorat tizimini baholash bo'yicha olib borilgan ishlar xo'jalik sub'ektidagi barcha kamchiliklarni aniqlash maqsadida ichki nazorat tizimi tomonidan to'liq va keng qamrovlitekshiruv olib borilishini bildirmaydi. Barcha kamchiliklarni aniqlash maqsadida, ichki nazorat tizimini to'liq va keng qamrovli tekshirish, auditga qo'shimcha xizmat sifatida tavsiflanadi. Xo'jalik sub'ektining buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimlarining iqtisodiy havfsizligini baholash, auditda qo'shimcha xizmatlarga kiritiladi.

Shunday qilib, ichki nazorat tizimi, bir tomondan, auditorlik tekshiruvi jarayonining asosi bo'lib, bir vaqtning o'zida, auditorlik tashkilotining xo'jalik sub'ekti moliyaviy hisoboti haqida berilgan fikrning haqqoniyligiga to'liq ishonch

yo'qligining sababi bo'lib ham xizmat qiladi. Buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimidagi kamchiliklar audit samaradorligini cheklovchi omillarga kiradi.

Rossiyalik iqtisodchi olimlar: A.D.Sheremet va V.P. Suysning fikricha, "Ichki nazorat tizimini audit jarayonida tekshirishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi: amaldagi ichki nazorat tizimiga ta'rif berish; nazorat mexanizmlarining maqsadga muvofiqligini baholash; ichki nazorat tizimi samaradorligini tekshirish".

Xorijiy mutaxassis J.Robertsonning fikricha, ichki nazorat tizimini o'rganish jarayonida o'rganish, baholash va testlash bosqichlari ajratilishi kerak.

Turli mualliflarning fikrlari ichki nazorat tizimini o'rganish bosqichlari mazmuniga ta'rif berishda ham turlichadir. Ichki nazorat tizimini o'rganish bosqichida:

nazorat tarkibi haqida tasavvur hosil bo'ladi;

auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishni hujjatlashtirish va dastlabki rejasini ishlab chiqish amalga oshiriladi;

baholash bosqichida – nazoratning samarasiz bo'lishi riski baholanadi, nazorat samarasizligi riskini kamaytirish xarajatlari hisoblab chiqiladi;

testlash bosqichida – nazoratning bajariladigan amallari va ularning bajarilishi aniqlanadi.

Shu bilan birga, auditorlik tashkilotlari o'zlarining faoliyatida ichki nazorat tizimini baholashning ko'p sonli bosqichlarini qo'llash to'g'risida qaror qabul qilishlari mumkin". Biroq ichki nazorat tizimini tahlil qilish va baholashning texnologik jarayoni o'ziga bundan ham ko'proq bosqichlarni oladi, yoki boshqacha qilib aytganda, ajratib ko'rsatilgan bosqichlar yanada muhim bo'lgan oraliq bosqichlarni o'z ichiga oladi. Auditorlik faoliyatining boshqa standartlarida ularga havola beriladi.

Afsuski, ichki nazorat tizimini auditorlik faoliyatining turli standartlari bo'yicha tahlil qilish va baholash yuzasidan tavsiyalarning bu darajada kengligi barcha auditorlik tashkilotlari uchun ichki nazorat tizimini baholash bo'yicha yagona uslubiyotni shakllantirishga yordam bermaydi, bu esa ushbu tizimni tahlil qilish va baholash bo'yicha auditorlik tashkilotlari ichki standartlari majmuasini ishlab chiqish zaruratini ilgari suradi. Bundan tashqari, fikrimizcha, bu O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasiga ziddir. Ushbu hujjatga ko'ra, auditorlik tashkilotlari auditorlik tekshiruvi o'tkazish shakllari va usullarini mustaqil belgilash huquqiga ega. Bundan uchta bosqich - rejalashtirish, hujjatlashtirish va auditorlik xulosasini tuzish mustasno. Ichki nazorat tizimini baholash ayni auditorlik tekshiruvini rejalashtirish bosqichida olib borilishi sababli, bu masala bo'yicha noaniqliklarga yo'l qo'yilmaydi.

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, ichki nazorat tizimining samarali faoliyat olib borishini ta'minlash uchun bizningcha, har bir xo'jalik sub'ektida ichki nazorat to'g'risida Nizom ishlab chiqilishi lozim. Mazkur Nizomda ichki nazorat tizimining vazifalari, nazorat sub'ektlari, ob'ektlari va yo'nalishlari belgilanishi kerak. SHuningdek, ichki auditorlarning vazifalari, huquqlari va majburiyatlarini aks ettiruvchi lavozim yo'riqnomalari, ichki audit o'tkazish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar ham ishlab chiqish davr talabidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

- 1.Vnutrenniy audit/ Jminko S.I., SHвырыова O.I., Safonova M.F. - Rostov n/D: Feniks, 2008. - 316, [2] s.: il. - (Vysshee obrazovanie).
- 2.Arens A., Lobbek Dj. Audit: Per s angl.-M.: Finansy i statistika 1995g., s.212.
- 3.Axmedjanov K.B. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ichki audit metodologiyasini takomillashtirish. Iktisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. - Toshkent 2016,- 32 bet.
- 4.Mexmonov S.U. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya xisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish. Iktisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchuy yozilgan dissertatsiyasi. - Toshkent 2018.- 55 bet.
- 5.<https://www.theiia.org> The Institute of Internal Auditors.